
TANLOV NATIJALARI ASOSIDA G'OLIB NOMZODLAR ANIQLANDI

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan hududlarda aholi muammolarini o'rganish va ularni hal etishga ko'maklashish, bandlikni ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish va boshqa sohalarda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan mas'ullarni rag'batlantirish uchun mahalla beshligi uchun tanlovlar o'tkazilmoqda.

Jumladan, har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Eng yaxshi mahalla raisi", "Eng yaxshi hokim yordamchisi", "Eng yaxshi yoshlar yetakchisi", "Eng yaxshi xotin-qizlar faoli", "Eng yaxshi profilaktika inspektori" tanlovlarini o'tkazish hududlarni kompleks rivojlantirish, obod va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tanlovning bu yilgi dastlabki tuman bosqichi Toshloq tumanida ham bo'lib o'tdi.

Ishtirokchilar tomonidan tanlov o'tkazuvchi tuman tashkiliy qo'mitasiga taqdim etilgan hujjatlar, ishlanmalar va fotoalbomlar hakamlar hay'ati tomonidan birma-bir ko'rib chiqilib, baholandi.

Tanlovning tuman g'oliblari viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

2023-09-29 16:53:03